

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSINING O'RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15630743>

Babajanova Diloram,

Alfraganus universiteti professori, tarix fanlari doktori

Toshkent, O'zbekiston (90/185-58-54)

diloramabajanova52@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqola Yangi O'zbekistonda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda, buyuk ajdodlar xotirasi hurmat va ehtirom ko'rsatishda buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib ma'naviy merosining o'rni masalasiga bag'ishlangan. Yusuf Xos Hojibning boy ma'naviy merosi O'zbekistondagi ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Maqolada mutafakkir asarlarining zamonaviy O'zbekistonning ma'naviy rivojidagi ahamiyatini, insonparvarlik, adolat va ma'rifat tushunchalarini o'zbek xalqining milliy qadriyatlari bilan uyg'un holda bog'lashga harakat qilingan. Shuningdek, maqolada alloma axloqiy va ma'naviy ta'limotining Yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yusuf Xos Hojib, ma'naviy meros, Qutadg'u bilig, ma'rifat, yoshlar ma'naviyati, Yangi O'zbekiston, axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar.

THE ROLE OF YUSUF KHOS HAJIB'S SPIRITUAL HERITAGE IN ENHANCING THE SPIRITUALITY OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN

Diloram Babajanova

Professor at Alfraganus University, Doctor of Historical Sciences

Tashkent, Uzbekistan (90/185-58-54)

diloramabajanova52@gmail.com

Annotation:

This article is devoted to the issue of the role of the great thinker Yusuf Khos Hajib's spiritual heritage in enhancing the spirituality of youth in New Uzbekistan and in honoring the memory of our great ancestors. The rich spiritual heritage of Yusuf Khos Hajib has played an important role in shaping the moral and ethical values in Uzbekistan. The article attempts to link the significance of the thinker's works for the spiritual development of modern Uzbekistan with the concepts of humanism, justice, and enlightenment in harmony with the national values of the Uzbek people. Additionally, the article analyzes the role of the scholar's moral and spiritual teachings in enhancing the spirituality of youth in New Uzbekistan.

Keywords: *Yusuf Khos Hajib, spiritual heritage, Qutadghu Bilig, enlightenment, youth spirituality, New Uzbekistan, moral values, national values.*

O'zbekistonda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, buyuk ajdodlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab, yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatish, ularni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Binobarin, o'zbek xalqining siyosiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usi tobora ortib borayotgan hamda bosib o'tilgan shonli yo'lga nazar tashlanar ekan, O'zbekiston atalmish jannatmakon yurtning, Yangi Konstitutsiyasining 61-moddasida keltirilganidek, "fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy vatabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi"[1,37-b.].

Yangi O'zbekiston barpo etilayotgan bugungi kunda mamlakatga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini jahon ahli tan olayotgan bir davrda ajdodlari qoldirgan boy milliy qadriyatlarni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'tmishdagi buyuk zotlar: "Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o'z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g'oyalari mujassam bo'ldi"[2,16-b.], deb aytish mumkin. Shular qatorida Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojib kabi buyuk mutafakkir zotlarni ham keltirib o'tish lozim. Ular qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan o'rnak va ibrat olib, bu g'oyani yoshlar ongiga tezroq yetkaza olgan hamda ularning ilmga, tarixga bo'lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan, ularda milliy g'urur shakllanishiga, ma'naviyatini yanada yuksaltirishga imkon yaratgan bo'linadi.

Yangi O'zbekistonning buyuk ne'mati bo'lgan erki va ozodligi o'zbek xalqining sa'y-harakati, barakali mehnati va ijodiy faoliyatidan kelib chiqish bilan birga, Turon zaminda voyaga yetgan hamda jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shib, o'z g'oyalari, tafakkuri bilan o'zbek milliy g'oyasiga asos solgan ajdodlarining boy ma'naviy merosi va sermazmun tarixiga ham tayanadi. Har bir millatning o'ziga xos jihatlarini, xususan, ma'naviyatini shakllantirishda eng avvalo, beqiyos ta'sir kuchiga ega bo'lgan milliy qadriyatining o'zni katta. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, buyuk zotlar ma'naviy merosining, xususan, mutafakkir allomalar ta'limotlarining o'zni va ahamiyati katta.

Katta umidlar bilan olg'a qadam tashlayotgan O'zbekiston bugungi kunga kelib, taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Dunyo tamaddunida "Yangi O'zbekiston", "Yangilanayotgan O'zbekiston" kabi nomlar bilan e'tirof etmoqdalar. "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan ezgu ishlarning amalga oshirilayotgani bu yurtda istiqomat qilayotgan har bir insonning baxt-saodati uchun xizmat qilmoqda. Bu e'tirof yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlarni amalga oshirgan o'zbek xalqiga

xos yaratuvchanlik shijoati, bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlari hamda olib borilgan keng ko'lamli islohotlarga nisbatan izhor etildi, deyish mumkin. Buyuk ajdodlariga xos azmu shjoat, o'zbek xalqining metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodga tayanib, jamiyat hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

Buyuk zotlar boy ma'naviy merosi jahon ilm-fani, umuman sivilizatsiyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat ma'naviy va madaniy merosining qimmatli asarlari butun dunyoda qadrlanadi va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zining noyob asarlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olimlardan biri, Ilk Renessans davrining yorqin namoyandasi Yusuf Xos Hojib, VIII-XI asrlarda yashagan buyuk mutafakkir, o'zbek xalqining ma'naviy va axloqiy qadriyatlari rivojida muhim rol o'ynagan shaxsdir. Uning "Qutadg'u bilig" asari olamshumul ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqining ma'naviy va axloqiy merosida muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekiston davlatini qurish va uning ma'naviy poydevorini mustahkamlash jarayonida Yusuf Xos Hojibning ma'naviy ta'limotlariga, ayniqsa, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda uning asarlari va g'oyalari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham ega. "Qutadg'u bilig"ning dunyoda faqat uch nusxasi – Vena, Qohira, Namangan nusxasi mavjud. "Qutadg'u bilig" hozirgacha jahonning ko'plab tillariga tarjima qilindi. Xususan, G'arbiy Yevropa tillariga qilingan tarjimalarning ham ahamiyati juda katta. Ushbu tarjimalar ko'plab o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan tahlil etildi va hamon bu ishlar davom etmoqda [3]. Mazkur asar haqidagi dastlabki ma'lumot va undan ayrim namunalar Yevropada 1823 yilda fransuz sharqshunosi Juabert Amede tomonidan "Journal Asiatique"da nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i hozirda AQSH Harvard universitetida prezidentlar tayyorlaydigan siyosatshunoslik fakultetida maxsus kurs sifatida o'qitilmoqda. Bularning barchasi dunyo Uyg'onish davri beshigi aynan bizning yurtimiz ekanligidan dalolat bermaydimi? Namangan davlat universiteti professori, "Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarining olmoncha ilmiy talqinlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini 1994 yilda va "Ilk turkiy obidaning inglizcha va olmoncha tarjimalarining qiyosiy-chog'ishtirma tahlili" bo'yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasini 2020 yilda muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan Z.Sodiqovning Yangi O'zbekiston" gazetasi muxbiri bilan suhbatida quyidagi fikrlari keltiriladi: "Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy-chog'ishtirma tahlili" mavzuidagi dissertatsiyamni muvaffaqiyatli yoqlab, filologiya fanlari doktori bo'ldim. Qizig'i, unda Germaniya Mayns universiteti professori, jahonga taniqli tarjimashunos Mixail Shrayber rasmiy opponent sifatida qatnashdi. U O'zbekiston Milliy universitetidagi ilmiy kengash olimlari oldida on-layn tarzda Yusuf Xos Hojibning mazkur asari nemis ilm-fan taraqqiyotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatganiga alohida e'tibor qaratdi. Yuqoridagi qaydlardan bilinib

turibdiki, yurtimizni dunyo e'tirof etmoqda. Ha, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans boshlanayotganidan olim sifatida behad mamnunman"[4].

Mashhur shoir, mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan. Bizgacha yetib kelgan yagona va yirik asari "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") muallifning ellik yoshlarida – 1069-70 yillarda yaratilganidan kelib chiqib, u 1020-21 yillarda tug'ilgan, deb taxmin qilinadi [5].

Qutadg'u bilig" — XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan. Unda turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odati va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Biron-bir toifa-tabaqa, biron-bir kasb-hunar, biron-bir ilm-fan, biron-bir hayotiy masala, biron-bir voqea-hodisa, biron-bir an'ana va urf-odat, biron-bir insoniy fazilat va qusurlar muallif nazaridan chetda qolmagan. Bu "Qutadg'u bilig" asarining qomusiy xarakteridan, haqiqatda o'z davrining badiiy qomusi ekanligi ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib uni Bolosog'unda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniylar hukmdori Tavg'och Bug'roxonga takdim etgan. Bug'roxon muallifni taqdirlab, unga „Xos Hojib“ („Eshik og'asi“) unvonini bergan. Shundan keyin shoir „Yusuf Xos Hojib“ nomi bilan mashhur bo'lgan. Lekin dostonning oxiridagi shikoyat ohanglariga qaraganda, shoir umrining oxiri bu davlatning tanazzuli davriga to'g'ri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham og'ir kechgan. Shoirning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan"[6].

"Qutadg'u bilig"ning badiiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqealardagi hayotiylik va shoir xayoli o'zaro nihoyatda uyg'un. Shoirning tasvirlari yorqin, tili nihoyatda shirali, mazmunga boy. Islom mintaqasi she'riyatining eng asosiy uslubi xususiyati – har bir baytning mustaqil tasviriy, timsoliy birlik darajasiga ko'tarilish talabi alloma tomonidan to'la his qilingan va amalga tatbiq etilgan. Turkiy tilda yaratilgan bu buyuk asar mintaqasi adabiyoti rivojining birinchi bosqichi uchun ma'lum ma'noda yakunlovchi asar bo'ldi. Bu bosqichning o'ziga xos ikki jihatini qayd etib o'tmoq kerak. Birinchidan, bu davrda ilm-fan va yozma badiiy adabiyot, asosan, turli hukmdorlar saroyi qoshida, ular homiyligida rivoj olib, gullab-yashnadi. Agar Abbosiy xalifalar saroyida arab tilidagi she'riyat, Somoniy va G'aznaviylar huzurida fors tilidagi adabiyot panoh topgan bo'lsa, Qoraxoniylar dargohida turkiy she'riyatning buyuk namunasi dunyoga keldi.

Ikkinchidan, bu adabiyotning o'ziga xos tomoni ma'rifatchilik edi. Nafaqat adabiyot, balki bu davrning butun ma'naviyatida yetakchi ruhni aqlga tayanish, bilimga chorlash, ijtimoiy adolat, marg'ub axloqni aql, zakovat kuchi bilan o'rnatishga ishonch tashkil qilar edi. Bu adabiyot birinchi navbatda hukmdor tabaqaga, beklar, zodagonlarga mo'ljallangan va o'shalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishni maqsad qilgan edi [7].

Shoirning u yoki bu masala bo'yicha pand-nasihatlarini xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o'xshab ketadi – ularning badiiy barkamolligi va

ma'rifiy ahamiyati ham shunda. Chunonchi, u insoniy kamolot, xususan, ilm-ma'rifat masalalariga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha: "Ikki xil kishi inson atalishga loyiq: biri o'rgatuvchi, biri – o'rganuvchi. Boshqalarning hayvondan farqi yo'q. Xohlasang – unisi bo'l, xohlasang – bunisi"[8].

Zahmatkash olim Qayum Karimov "Qutadg'u bilig"ning nisbatan to'liq hisoblangan Namangan nusxasini asos qilib olgan holda, undagi yetishmagan joylarni Hirot (Vena) va Qohira nusxalari asosida to'ldirib, asarning transkripsiyasi va hozirgi o'zbek tiliga tavsifini amalga oshirgan. Ayni paytda, u Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari tadqiqiga bag'ishlagan maqolalarida ba'zi parchalarning she'riy tarjimasini ham keltiradi. Bundan tashqari, taniqli adabiyotshunos Boqijon To'xliyev asarning nasriy bayon va she'riy tarjima aralash bolalarbop qisqartirilgan nusxasini nashr ettirdi. Shoir Sa'dulla Ahmad esa asarning ayrim qismlarini she'riy tarjima qilgan.

Yusuf Xos Hojib asari insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarning mukammal birlashmasini o'zida mujassam etgan. Asarning har bir bobida insonning ma'naviy o'zgarishlari, axloqiy rivojlanish va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar haqida so'z boradi. Asardan o'rganiladigan asosiy g'oyalar – adolat, hayotiy muddatga sodiqlik, jamiyatga foyda keltirish va insonning ichki zo'rliklarini boshqarish kabi tushunchalardir. Yusuf Xos Hojib tasavvuf g'oyalariga, haqiqiy taqvo egalariga yuksak ehtirom bilan qaraydi, ammo jamiyat, xalq baxti uchun, adolat tantanasi uchun o'z umrini bag'ishlash uning bosh yo'nalishi bo'lib qoladi. Yusuf Xos Hojibning Ibn Sinoga yaqinligini fanda nemis olimi Albert Otto alohida ta'kidlagan edi. Ular dunyoqarashi o'rtasidagi o'xshashlik, eng muhimi, avvalo, dunyoni yaxlit holda ko'rishda, insonni mukammal qilishga intilishlarda ko'rinadi. Ibn Sino "Risola fil – ishq" asarida "Mukammallikda kamchilik bo'lmaydi, chunki kamchilikning mavjudligi mukammallik yo'qligidan nishonadir", deydi. Yusuf Xos Hojib qarashlarida ham inson hech qachon erishganlariga qanoat qilmasligi, u hamma vaqt bilmaganini bilishi, hali qo'lga kiritilmagan yutuqqa muyassar bo'lishi uchun intilishi lozimligi ta'kidlanadi [9].

Mutafakkir shoir hikmatlari katta hayotiy tajriba va qomusiy bilim mahsuli ekanligi, hayotiy negizi mustahkamligi, kundalik turmush va atrofdagi narsa-hodisalar bilan bog'lab tushuntirilganligi, shaklan go'zal, mazmunan teran, usluban ravon, badiiy yuksak-ligi, tilining soddaligi, timsolu tashbehlarining tabiiyligi, fikr-xulosalarining samimiyligi, hassos va ta'sirchanligi bilan asrlarni bo'ylab keldi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini, ta'sir kuchini yo'qotgan emas.

Yusuf Xos Hojibning ma'naviy merosi Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevorini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Uning asarlari va g'oyalari jamiyatning axloqiy rivojiga, davlat qurishga va milliy qadriyatlarni saqlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi O'zbekistonda har bir insonning ma'naviy o'sishi, jamiyatdagi axloqiy muhitni yaxshilash va adolatni ta'minlashda Yusuf Xos Hojibning ta'limotlaridan foydalanish muhimdir.

Yangi O'zbekistonda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo'lishini ta'minlashda dunyoda o'ziga yarasha yuksak

salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o‘tgan. Ayni paytda bu borada to‘plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o‘zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o‘z iymoni, e‘tiqodlari, ma‘naviy ruhlari bilan qo‘llab-quvvatlab, olg‘a yetaklaydi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Parlament va o‘zbek xalqiga qilgan Murojaatnomasida ta‘kidlaganidek” “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma‘rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”[10].

Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan hozirgi davrda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga bel bog‘langan. Ana shu maqsadni ko‘zlagan Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “milliy ma‘naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning turli mamlakatlardagi muzey va kutubxonalarda saqlanayotgan qo‘lyozmalarini o‘rganish, mavjud nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilishi”[11,34-b.] yo‘lida amaliy harakatlarga undab kelmoqda. Ana shu maqsadda Yangi O‘zbekistonda buyuk allomalarimizning bebaho merosini chuqur o‘rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish ustuvor masalalardan biriga aylangan. Zero, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz kabi buyuk bobolarimiz vasiyatlari va ular qoldirgan ulkan ma‘naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyaviy ta‘limotni yoshlar ongiga singdira qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirgan bo‘lamiz.

Yoshlar masalasi e‘tibor markazidan, kun tartibidan o‘rin olganining sababi, avvalo, aholining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan yoshlar miqdor jihatidan yirik qatlam, katta kuch hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar kuch-quvvatga to‘la, g‘ayratli bo‘lgani uchun ular boshqa guruhlariga nisbatan faol, yangiliklarga ochiq, innovatorligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi. Shu bois, Prezident, “biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”[12], deb ta‘kidlagani ham bejiz emas.

Bugun mamlakatimizda Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessansini ro'yobga chiqarish jarayoni boshlangan ekan, qadimiy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizni, O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlari qoldirgan boy merosni avaylab-asrash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida jamuljam bo'ldi"[13,18-b.].

Prezident, "biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"[14], deb ta'kidlagani bejiz emas. Shu boisdan ham, Yangi O'zbekistonda buyuk allomalarmizning bebaho merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga kengroq jalb etish vazifalari ustuvor masalalardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.—Toshkent:O'zbekiston, 2023.—B.37.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.—Toshkent:O'zbekiston, 2021.—B.16.
3. Jo'rayev Sh. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari jahon adabiy jarayonida/International scientific and practical conference "trends of modern SCIENCE AND PRACTICE". Ankara, Turkey, 2023// <https://zenodo.org/records/8001991>.
4. Uchinchi uyg'onish davri sarchashmalariga bir nazar // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020 yil 26 dekabr/ <https://yuz.uz/news/uchinchi-uygonish-davri>.
5. Turkiy adabiyotning noyob obidasi/ <https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/1410-yusuf-hos-hojib>.
6. Yusuf Xos Hojib//<https://uz.wikipedia.org/wiki/Vikipediya>.
7. Mutafakkirlar. Yusuf Xos Hojib//<https://shosh.uz/mutafakkirlar-yusuf-hos-hojib>
8. Turkiy adabiyotning noyob obidasi/Ergash Ochilovning "Barhayot siymolar" kitobidan//<https://adabiyot.islamonline.uz/kitoblar/maqolalar/1410-yusuf-hos-hojib>.
9. [Muxamedov M.](#) Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari/<https://cdn.uza.uz/2022/07/20/05/44/FIqdraOk6Pp9tXVeiqkLdELx9LylkbtZ.pdf>

10. Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi/ www.xabar.uz › jamiyat › shavkat-mirziyoyevn.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.– B.34.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.– B.18.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.